XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

141408, Kattaqo‘rg‘on t., A.Navoiy k., 1-uy.

2022 - yil 31 - mart VI-54-69-7-96-K/22 Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumandagi maydon, ziyoratgoh, istirohat bog‘lari nomlarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-14/878-sonli xati, shuningdek, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining hisobotini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq 54-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-14/878-sonli xati ma’lumot va ijro uchun uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan maydonlar nomi 1-ilovaga, ziyoratgohlar nomi 2-ilovaga, istirohat bog‘lari nom i 3-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror kuchga kirishi bilan tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Otamurodov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Qulmirzayev), Kadastlar palatasi tuman filiali (M.Ochilov) hamda tuman Statistika bo‘limiga tumandagi maydon, ziyoratgoh, istirohat bog‘larining nomlari ma’lum qilinib, tegishli hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov), tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov)ga ushbu qarorni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jalik hamda aholiga xizmatlar ko‘rsatish komissiyasi (J.Jumayev) va tuman hokimining o‘rinbosari L.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Nasriddinov**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-54-69-7-96-K/22-son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan tumandagi maydonlarni nomlash bo‘yicha tavsiya etilgan

TAKLIFLAR

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert xulosasi
1.	**Maydon**	Mullako‘rpa	nomsiz	Motamsaro ona	Qonun talablariga muvofiq
2.	**Maydon**	Kattaming	nomsiz	Xotira	Qonun talablariga muvofiq
3.	**Maydon**	Mirzo Ulug‘bek	nomsiz	Baynalmilal jangchilar	Qonun talablariga muvofiq
Jami:			**3 ta**		

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-54-69-7-96-K/22-son qaroriga
2-ilova

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan

tumandagi ziyoratgohlarni nomlash bo‘yicha tavsiya etilgan

TAKLIFLAR

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert xulosasi
1.	**Ziyoratgoh**	Olmazor mahallasi Abulqosim qishlog‘i	nomsiz	Xo‘ja Abdurahmon ibn Afv	Qonun talablariga muvofiq
2.	**Ziyoratgoh**	Payshanba shaharchasi Do‘stlik mahallasi	nomsiz	Said Jaloliddin	Qonun talablariga muvofiq
3.	**Ziyoratgoh**	Vayrot mahallasi	nomsiz	Koshonota	Qonun talablariga muvofiq
4.	**Ziyoratgoh**	Andoqsoy mahallasi Andoqsoy qishlog‘i	nomsiz	Xoja Abul Hasan Andoqiy	Qonun talablariga muvofiq
5.	**Ziyoratgoh**	Jizmonsoy mahallasi Jizmon qishlog‘i	nomsiz	Shayx Nodirjon xo‘ja	Qonun talablariga muvofiq
Jami:			**5 ta**		

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-54-69-7-96-K/22-son qaroriga
3-ilova

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan

tumandagi istirohat bog‘larni nomlash bo‘yicha tavsiya etilgan

TAKLIFLAR

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert xulosasi
1.	Istirohat bog‘i	Mirzo Ulug‘bek mahallasi	nomsiz	Yoshlik	Qonun talablariga muvofiq
2.	Istirohat bog‘i	Do‘stlik mahallasi	nomsiz	Alisher Navoiy	Qonun talablariga muvofiq
Jami:			**2 ta**		